

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida  
UDK 338.45:001.895(575.1)

**SOBIRXONOV AKBARXON AZIZ-O'G'LI**

**SANOAT MAHSULOTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI**  
**OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOPARKLARDAN SAMARALI**  
**FOYDALANISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**  
**ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**  
**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:** K.A. Sharipov, Texnika fanlari doktori, professor

**Toshkent shahri – 2024-yil**



## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>4</b>
<b>I BOB. INNOVATSION TEXNOPARKLARDAN FOYDALANISH MEXANIZMINING NAZARIY – USLUBIY ASOSLARI.....</b>	<b>13</b>
1.1. Sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklarning o‘rni va ahamiyati.....	13
1.2. Innovatsion texnoparklardan samarali foydalanishning nazariy jihatlari.....	22
1.3. Sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan foydalanishning xorijiy tajribasi .....	32
I bob bo‘yicha xulosa.....	48
<b>II BOB. INNOVATSION TEXNOPARKLARNING HOZIRGI HOLATI VA ASOSIY IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI TAHLILI.....</b>	<b>50</b>
2.1. Innovatsion texnoparklar rivojlanish holatining tahlili.....	50
2.2. Innovatsion texnoparklarning sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligiga ta’sirining tahlili.....	58
2.3. Sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan foydalanish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar tahlili.....	85
II bob bo‘yicha xulosa.....	112
<b>III BOB. SANOAT MAHSULOTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOPARKLARDAN FOYDALANISH MEXANIZMINI OPTIMALLASHTIRISH.....</b>	<b>114</b>
3.1. Sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklar ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish.....	114
3.2. Innovatsion texnoparklar miqyosida texnologiyalar va bilimlar transferi mexanizmlarini takomillashtirish.....	130
3.3. Sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan foydalanish samaradorligini davlat tomonidan qo‘llab - quvvatlash va tartibga solishning roli.....	147
III bob bo‘yicha xulosa.....	154
<b>XULOSA.....</b>	<b>156</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>159</b>

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahondagi turli mamlakatlarda innovatsion texnologiyalarni strategik tatbiq etish, mahalliy texnoparklarni tashkil qilish va ushbu subyektlarning xalqaro savdo va tijoratni boshqaruvchi keng global qiymat zanjiriga samarali integratsiyalashganiga ishonch hosil qilish orqali sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, "Jahon bo'ylab 2500 ga yaqin texnopark tarqalgan, taxminan 300 tasi Amerika Qo'shma Shtatlarida, 110 ga yaqini Yaponiyada, 80 dan ortig'i Xitoy chegarasida joylashgan bo'lib, 50 dan ortig'i Hindistonda tashkil etilgan. Yevropa Ittifoqida 600 dan ortiq texnopark mavjud, ulardan 360 tasi Germaniyada, 80 ga yaqini Fransiyada va 25 dan ortig'i Finlyandiyada joylashgan"<sup>1</sup>. Bu esa sanoat mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirishning dolzarbligini namoyon etadi.

Hozirgi global raqobat sharoitida jahondagi innovatsion sanoat texnoparklari faoliyatini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlaridan foydalanishga doir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Innovatsion ekotizimni yaratish orqali mahsulotlar sifati hamda texnologiyalarning raqobatbardoshligini oshirish, texnologik transfer va ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash, texnoparklar orqali xalqaro hamkorliklar va aloqalarni kengaytirish, innovatsion texnoparklarda startaplar va kichik biznes uchun shart-sharoitlar yaratish, mahsulot sifatini yaxshilash va yangi ishlab chiqarish usullarini joriy etish, innovatsion texnoparklar orqali sanoatga investitsiyalar jalb qilish, xususan, venchur kapitalini rivojlantirish va xorijiy sarmoyadorlarni jalb etish, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsion texnoparklardan samarali foydalanish mexanizmini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsion texnoparklar va sanoat zonalari

---

<sup>1</sup> <https://review.uz/post/texnoparki-vsokix-texnologiy>

kengaytirilmoqda. Bu borada amalga oshirilgan loyihalar qatorida Xitoyning Mingyuan Group bilan hamkorlikda Zomin tumanida qurilayotgan 1,2 milliard dollarlik texnopark elektr uskunalar, mebel, qurilish materiallari va boshqa sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Ushbu texnopark 30 loyihani qamrab olgan bo'lib, unda 5 mingdan ortiq ish o'rnini yaratishi kutilmoqda. Shuningdek, texnopark eksport salohiyati yiliga 70 million dollarga yetishi kutilib, sanoat mahsulotlari umumiy qiymati esa 4,7 trillion so'mni tashkil etadi<sup>2</sup>. Qolaversa, mamlakat bo'ylab 2024 yilda 841 ta yangi sanoat loyihalari amalga oshirilishi rejalashtirilgan va ularga jami 13,3 trillion so'm miqdorida investitsiya kiritiladi. Bu loyihalar natijasida 27,7 mingta yangi ish o'rinlari yaratiladi va sanoat mahsulotlari eksporti ko'lami ortishiga olib keladi. Bu kabi sanoat zonalari hukumat tomonidan joriy etilgan 766 ta maxsus sanoat zonasining bir qismi bo'lib, ularning 532 tasi kichik sanoat zonalari va 210 tasi yoshlar tadbirkorlik zonalariga ajratilgan. Bunday iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda<sup>3</sup>. Bu kabi chora-tadbirlar mahalliy sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro bozorlarda o'z o'rnini mustahkamlashga xizmat qilib, innovatsion texnoparklarda sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni baholash bo'yicha uslubiy yondashuvlar ishlab chiqish, sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlashda innovatsion texnoparklardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llarini asoslash, innovatsion texnoparklar miqyosida texnologiyalar va bilimlar transferi mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari bo'yicha amaliy takliflarni ishlab chiqish, ko'p omilli ekonometrik model asosida innovatsion texnoparklarda ishlab chiqarish mahsulotlar hajmining dinamikasi o'rta muddatli prognoz ssenariylarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini namoyish etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish

---

<sup>2</sup>Uzbekistan begins \$1.2B tech park construction with Chinese collaboration in Zaamin. - <https://kun.uz/en/news/2024/06/27/uzbekistan-begins-12b-tech-park-construction-with-chinese-collaboration-in-zaamin>

<sup>3</sup>[https://unctad.org/system/files/non-official-document/cn20231012\\_stiUz\\_EN.pdf](https://unctad.org/system/files/non-official-document/cn20231012_stiUz_EN.pdf)

strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi 6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari,

2018-yil 7-maydagi PQ-3698-son "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-oktyabrdagi

606-son "Investitsiya faoliyatini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va boshqa qonunchilik hujjatlari va mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirish mavzusi bir qator tadqiqotlar orqali o'rganilgan. Mazkur masala xorijlik iqtisodchilardan Y.Shumpeter, F.Yansen, L.Rayt, G.Mensch kabi olimlar ishlarida o'z aksini topgan.<sup>4</sup>

MDH davlatlarida sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirish mavzusi V.I.Lafitskiy, L.K.Tereshenko, T.A.Yedkova, V.X.Tribushnaya, V.A.Barinova, I.V.Perfilyev, A.V.Surin, O.P.Molchanova, V.M.Anishina, A.A.Dagayeva, Yu.P.Morozov, G.M.Kostyunina, V.I.Baronov, V.P.Maksakovskiy,

---

<sup>4</sup> Shumpeter J. Business Cycles: A Theoretical, Historical and Statistical Analysis of the Capitalist Process. Vol. 1. NY.; McGrawHill. 1939. – 461 p.; Шумпетер Й. Теория экономического развития, М.: Прогресс, 2002. – С. 255.; Феликс Янсен. Эпоха инноваций / пер. с англ. — М.: Инфра-М, 2002. -XII. — 308 с. — (Менеджмент для лидера). — ISBN 5-16-001234-6 (русск.). — ISBN 0-73-63875-0 (англ.); Лоуренс Райт. Инновации в России. Американский опыт и российская специфика. *Частный корреспондент* (13 сентября 2010). Дата обращения: 6 июня 2021.; Mensch G. Stalemate in Technology – Innovations Overcome the Depression. New York, NY: Ballinger. 1979.

Ye.A.Tixonov, V.V.Krivorotov, P.V.Chepur, M.A.Zigalova, Ye.A.Makarova, N.I.Antipina kabi olimlar asarlarida o‘z aksini topgan.<sup>5</sup>

O‘zbekistonda A.X.Toshqulov, K.A.Sharipov, M.P.Eshov, N.Q.Yo‘ldoshev, U.Sh.Yusupov, A.T.Shermuxeamedov, B.M.Xolboev, M.A.Maxkamova, O.S.Nazarmatov, T.Z.Toshpo‘latov, I.I.Soliyev, O.E.Ernazarov, G.D.Xasanova, A.E.Norov kabi olimlar izlanishlarida iqtisodiyotni raqamlashtirishni rivojlantirish yo‘liga o‘tkazish, jumladan, sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan.<sup>6</sup>

Yuqorida qayd etilgan olimlar sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion texnoparklardan samarali foydalanish yuzasidan ilmiy-

---

<sup>5</sup> Лафитский, В.И., Терещенко, Л.К., Едкова Т.А. и др.; отв. Ред. Л.К. Терещенко. – М.: Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве РФ: 2014. – 245 с. — DOI 10.12737/2840 ([www.doi.org](http://www.doi.org)); Трибушная В.Х. Инновационная инфраструктура как необходимость поддержки наукоёмкого предпринимательства: технопарки и стратегическое управление: Монография. Ижевск, 2011.240 с.; Барнинова В.А. Технопарки страны мира: организация деятельности и сравнение. Издательский дом “Дело” РАНХиГС, 2012. 182 с. (Инновационная экономика: опыт); Перфильев И.В. Управление инновационной инфраструктурой промышленного предприятия// Экономические науки. – 2007. - №29. – С. 239-242.; Сурин А.В., Молчанова О.П. Инновационный менеджмент. Учебник. – М.: Инфра-М, 2008. 55 с. [https://www.bsuir.by/m/12\\_100229\\_1\\_95027.doc](https://www.bsuir.by/m/12_100229_1_95027.doc); Аньшина В.М., Дагаева А.А. Инновационный менеджмент: Концепции, многоуровневые стратегии и механизмы инновационного развития. Учебник. – М.: Дело, 2006.222 с.; Морозов Ю.П. Инновационный менеджмент. Учебное пособие. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000. – 283 с.; Костюнина Г.М., Баронов В.И. Технопарки в зарубежной и российской практике// Вестник МГИМО Университета. 2012.№3(24).; Максаковский В.П. Географическая картина мира. В 2-х книгах. Книга II. Региональная характеристика мира. М.: Дрофа, 2009. 322 с.; Тиханов Е.А., Криворотов В.В., Чепур П.В. Система факторов повышения конкурентоспособности предприятий, действующих на территории индустриальных парков// Фундаментальные исследования. – 2016. - № 2-3. – С. 643 – 646. <https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=39990>; Зигалова М.А., Макарова Е.А. Технопарки и инновационные центры Германии [Technology parks and innovation centers of Germany], Вестник Шадринского государственного педагогического университета. [Bulletin of Shadrinsky State Pedagogical University], 2017, Вып. 1.; Антипина Н.И. Особенности национальной инновационной системы Германии: Учеб. пособие. – М.: Дрофа, 2013. <https://cyberleninka.ru/article/n/tehnoparki-i-innovatsionnye-tsentry-germanii>;

<sup>6</sup> Toshqulov A.X., Sharipov K.A., Eshov M.P. Новый Узбекистан: шаги социального-экономического развития. Учеб.пособ.-Т.: “Ma’naviyat”, 2021. Стр. 792.; Н.К.Юлдошев, У.Ш.Юсупов. Инновационный менеджмент и предпринимательство. (Учебник). –Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи” 2022, 320 стр.; Шермухамедов А.Т., Холбоев Б.М. “Инновационное развитие технопарков в Узбекистане.” Журнал. Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования №3 (69), 2023.; Махкамova M.A. Формирование организационно-экономического механизма управления инновационной деятельностью на промышленных предприятиях Республики Узбекистан: автореф. дис. ...д.э.н. –Т.: ТГТУ, 2004. – С. 45; Nazarmatov O.S. To‘qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshvarishni takomillashtirish. 08.00.13 – Menejment Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Dissertatsiya avtoreferati. 45 b.; Toшпулатов Т.З. Развитие инновационной деятельности в промышленности Республики Узбекистан: авторефер. дис... к.э.н. –Т.: Институт экономики АН РУз., 2004, -С.24; Солиев И.И. Развитие инновационных процессов в сфере связи и информатизации Узбекистана: авторефер. дис... к.э.н. –Т.: Институт экономики АН РУз, 2010, -С.23.; Ernazarov O.E. Innovatsiyalar asosida sanoat korxonalarini samaradorligini oshirish: PhD diss. avtor.. –Т.: 2020. –В.60. Xasanova G.D. Sanoat korxonalarini innovatsion faoliyati samaradorligini oshirish: i.f.n., diss. avtorefer. –Т., BuxDU.; A.E. Norov “O‘zbekistonda innovatsion menejment tamoyillari asosida ilmiy darajali kadrlar tayyorlash metodologiyasini takomillashtirish” 08.00.13 – Menejment Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2023y.45 b.

nazariy tadqiqotlar olib borish orqali mamlakat ichidagi texnoparklar faoliyatining rivojiga jiddiy hissa qo'shganlar. Biroq, sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirishga bag'ishlangan nazariy-amaliy masalalar tizimli va mukammal tarzda o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-1-sonli "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklarning o'rni va ahamiyatini ilmiy tadqiq qilish;

sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan foydalanishning xorijiy ilg'or tajribasini qiyosiy o'rganish;

innovatsion texnoparklar rivojlanish holatini tahlil qilish;

sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish;

sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklar ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish;

innovatsion texnoparklar miqyosida texnologiyalar va bilimlar transferi mexanizmlarini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish;

sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan foydalanish samaradorligini oshirishda davlat tomonidan qo'llab-



quvvatlash va tartibga solishning ustuvor jihatlariga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

innovatsion texnoparklar ko'rsatkichlarining qisqa muddatli prognoz hisob-kitoblarini amalga oshirish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi innovatsion texnoparklar tanlab olingan.

**Tadqiqot predmeti** bo'lib sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirish va uni amaliyotda qo'llash jarayoni bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash, ekonometrik tahlil va prognozlashtirish usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

innovatsion texnoparklarda sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish jarayoniga texnologik innovatsiyalar va rivojlanish ( $TIR = 30-50\%$ ), sifat va sertifikatlash ( $SS = 25-35\%$ ), marketing va brending ( $MB = 20-30\%$ ) omillari ta'sirining miqdoriy chegaralari asoslangan;

sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlashda texnopark funksiyalarini rezidentlar o'rtasida ularning vakolatlari va imkoniyatlariga muvofiq tarzda taqsimlash hamda ta'sischi tarkibiga universitetlar va ilmiy tashkilotlarni kiritish orqali innovatsion texnoparklardan foydalanish samaradorligini oshirish asoslangan;

innovatsion texnoparklar miqyosida texnologiyalar va bilimlar transferi mexanizmlarini hududlarning drayver tarmoq yoki sohalariga muvofiq keladigan universitet ichida innovatsion texnoparklarni tashkil etish asosida mutaxassis kadrlarni tayyorlash hamda ularni ish bilan ta'minlash orqali takomillashtirish asoslangan;

O'zbekistonda innovatsion texnoparklarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi dinamikasining ko'p omilli ekonometrik modeli asosida 2026 yilga qadar prognoz

ssenariylari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

innovatsion texnoparklardan samarali foydalanishning nazariy jihatlari asosida sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan samarali foydalanish mexanizmi takomillashtirilgan;

xalqaro tajribalar va tamoyillarga asoslanib sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan samarali foydalanish mexanizmlari tasnifi taklif etilgan;

innovatsion texnoparklarning sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligiga ta'sirining tahlili o'tkazilgan;

sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan;

sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklar ko'rsatkichlari ekonometrik modellashtirish orqali ularning natijadorligi aniqlangan;

innovatsion texnoparklar miqyosida texnologiyalar va bilimlar transferi mexanizmlarini takomillashtirish va sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan foydalanish samaradorligini oshirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi iqtisodchi olimlarning sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish, tadqiqot jarayonida qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning asoslanganligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy va uslubiy xulosa va takliflarning innovatsion texnoparklarning sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda o'ynayotgan muhim rolini asoslash, ushbu innovatsion texnoparklardan samarali

foydalanish bilan bog'liq nazariy o'lchamlarni aniqlash, texnoparklarning operatsion samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishini ifodalovchi ilmiy-nazariy asoslarni boyitish, innovatsiyalar bo'yicha nazariy bilim va qarashlarni rivojlantirishga xizmat qilishi orqali namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan innovatsion texnoparklar faoliyatiga tatbiq etilishi, texnoparklar tomonidan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishda innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Shuningdek, ulardan O'zbekistonda faoliyat yurutayotgan innovatsion texnoparklar, jumladan innovatsion texnoparklarning innovatsion faolligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan davlatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

innovatsion texnoparklarda sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish jarayoniga texnologik innovatsiyalar va rivojlanish (TIR = 30-50%), sifat va sertifikatlash (SS = 25-35%), marketing va brending (MB = 20-30%) omillari ta'sirining miqdoriy chegaralari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi innovatsion texnoparklarning ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 20 avgustdagi 04/42-2416-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mahsulot birligini ishlab chiqarish tannarxini 7,4 foizga kamaytirishga erishildi hamda innovatsion texnoparklar o'z hududida joylashtirilgan korxonalariga yuqori texnologiyalar sohasida barcha zarur xizmatlar majmui taqdim etilgan.

Sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlashda texnopark funksiyalarini rezidentlar o'rtasida ularning vakolatlari va imkoniyatlariga muvofiq tarzda taqsimlash hamda ta'sischi tarkibiga universitetlar va ilmiy tashkilotlarni

kiritish orqali innovatsion texnoparklardan foydalanish samaradorligini oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi innovatsion texnoparklarning ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 20 avgustdagi 04/42-2416-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida INNO texnoparkida innovatsion texnologiyalar turlarini ko‘paytirish hisobiga uning yalpi foydasi hamda mahsulot rentabelligini 12 foizga oshirish imkoni yaratilgan;

innovatsion texnoparklar miqyosida texnologiyalar va bilimlar transferi mexanizmlarini hududlarning drayver tarmoq yoki sohalariga muvofiq keladigan universitet ichida innovatsion texnoparklarni tashkil etish asosida mutaxassis kadrlarni tayyorlash hamda ularni ish bilan ta’minlash orqali takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi innovatsion texnoparklarning ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 20 avgustdagi 04/42-2416-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mahsulot raqobatbardoshligini oshirish va sotishdan olingan foyda hajmini 722 mln. so‘mga oshirish imkoni yaratilgan;

O‘zbekistonda innovatsion texnoparklarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi dinamikasining ko‘p omilli ekonometrik modeli asosida 2026 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ssenariylari O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 20 avgustdagi 04/42-2416-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida innovatsion texnoparklarda ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini oshirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta milliy ilmiy-amaliy anjumanlarda ko‘rib chiqilgan va aprobatsiya qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya

komissiyasi tomonidan iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy konferensiya to'plamlarida 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi xorijiy va 2 tasi respublika to'plamlarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish qismi, uch bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalar bo'limlaridan iborat bo'lib, jami 160 betdan iborat.